



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

Va bunday kishiga hech bir voqea va hodisa (jumladan, og'ir musibatlar) ma'lum bo'lmasdan qolmaydi, unga hodisalar xabari kelib turadi.

Bu ayolga ham o'g'lining o'limi xabari borasida (biror ishora) kelmagan edi. Shundan bildiki, o'g'li o'lmagan. Shuning uchun shayxning xabarini inkor qilib, "Tangri taolo bu ishni qilmaydur", – dedi. (Alisher Navoiy, 2025: 271)

Xullas, Hazrati Navoiyning ma'naviy xazinasidan xalqimizni qanchalik bahramand etsak, bu eng avvalo, o'zimiz uchun koni foydadir:

*Naf'ing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki, bu naf' o'zunga ko'prakdurur.*

Adabiyotlar:

1. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. T.: "Toshkent islom universiteti", 2009. – 624 b.
2. Alisher Navoiy. Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar. T.: "Sano-standart", 2016. – 526 b.
3. Muhammad Nurulloh saydo al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. T.: "Movarounnahr", 2000. – 100 b.
4. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. T.: "O'zbekiston", 2017. – 452 b.
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur.
6. Ibrohim Haqqul Navoiyga qaytish. 2-kitob. T.: "Tafakkur ziyosi", 2011. – 252 b.
7. Suyandik Mustafoyev. G'aroyibot. T.: "Sano-standart", 2015. – 160 b.
8. Alisher Navoiy. Navosiz ulusning navobaxshi bo'l. T.: "Sahhof", 2025. – 304 b.

ALISHER NAVOIYNING BOQIY MEROSI JAHON TILLARIDA

Rasulova Nilufar Abduvossiyevna

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili amaliy
aspektlari kafedrası, v.b. dotsenti, PhD
nilufar_rasulova@inbox.ru
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/ZMMU6659*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada A.Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *tafakkur, qasida, meros, ma'rifat, devon, g'oya, ma'naviyat*

ALISHER NAVAI'S ETERNAL LEGACY IN WORLD LANGUAGES

Abstract. *This article examines the invaluable creative and scientific legacy of Alisher Navoi, highlighting his significant contributions not only to the history of our national culture and literature but also to world literature. The analysis emphasizes Navoi's impact on the development of national cultural and aesthetic thought, underscoring his enduring influence on both the intellectual and literary traditions of his time.*

Key words: *thought, qasida, heritage, enlightenment, devotion, idea, spirituality*

Sevimli shoirimiz Abdulla Oripovning mashhur "O'zbekiston" qasidasida e'tirof etilgan ushbu misralardan, hatto, Sohibqiron Amir Temur saroyida turkiy tilni davlat tili darajasiga olib chiqish ishlari oxiriga yetkazilmay qolgan bir sharoitda ham Alisher

Navoiy o'z oldiga o'zbek tili maqomini tiklash maqsadini qo'yganligini anglash qiyin emas.

Zero, buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri, atoqli davlat va jamoat arbobi, ta'lim-tarbiya va ilm-fan, ma'naviyat va madaniyat, ona tilimiz va adabiyotimiz homiysi bo'lgan Alisher Navoiy hazratlari – xalqimiz ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' ajdodlarimizdan hisoblanadi. U zotning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 19-oktyabrda qabul qilingan "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorida ta'kidlanganidek, "Ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egalladi".

Alisher Navoiy "Xamsa"si XV asrdagi xalqimiz ma'naviy taraqqiyotining ko'zgusi bo'lib, "Xamsa" uning shoh asaridir. Unda o'sha davr turmushi, xalq hayoti, din va diyonat, odob va axloq haqidagi qarashlar o'z ifodasini topgan, shuningdek, o'z navbatida boshqa "Xamsa" lardan farq qilgan alohida xususiyatlar asosida bo'lgan insoniylik va boshqa ezgulik g'oyalarining talqiniga ega. Navoiy "Xamsa"si bir-biri bilan ich-ichidan mustahkam bog'langan beshta dostonni o'z ichiga oluvchi yaxlit asardir. Buyuk shoir unda zamonasining barcha dolzarb masalalarini qalamga oladi. Mundarijaviy doston bo'lmish "Hayrat ul-abror"da shoir umr, uning mazmuni, tabiat, jamiyat va inson munosabatlariga doir savollarni qo'yib, keyingi dostonlarda muayyan taqdirlar, voqealar misolida ularga javob berishga intiladi. "Xamsa"da buyuk mutafakkirning olam va odam, tabiat, kishilik jamiyati, umr va uning mazmuni haqidagi falsafiy-axloqiy qarashlari, ijodkor sifatidagi buyuk salohiyati, u qo'llagan badiiy timsollar, tashbehu tamsillar vositasida butun bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi she'riy merosi, asosan, "Xazoyin ul-maoniyy" devoniga jamlangan. Asar to'rt qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi – "G'aroyib us-sig'ar" ("Bolalik g'aroyibotlari"), ikkinchi qismi – "Navodir ush-shabob" ("Yigitlik nodirotlari"), uchinchi qismi – "Badoye' ul-vasat" ("O'rta yosh badialari") va to'rtinchi qismi – "Favoyid ul-kibar" ("Keksalik foydalari") deb nomlangan.

Bu devonlarning har birida 650 tadan 2600 g'azal, umuman, "Chordevon"da jami 210 qit'a, 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo, 13 tuyuq, 10 muxammas, 10 chiston, 5 musaddas, 4 tarje'band, 4 mustazod, 1 musamman, 1 tarkibband, 1 qasida, 1 masnaviy va 1 soqiynoma mavjud. Ya'ni Sharq she'riyatining 16 turi unda namoyon bo'lgan. Ana shu nazmiy javohirlarning mazmun-mundarijasini muktasar izohlaydigan bo'lsak, o'zbek she'riyatida inson dardi va hasratlarini, yor, do'st va Ollohga muhabbat taronalarini Navoiy hazratlaridan o'tkazib ifodalagan shoirni topish mushkul.

"Lison ut-tayr" asarini ingliz tiliga o'g'irgan tarjimon Garri Dik ta'biri bilan aytganda, "Ilohiy ishq zavqini tuygan kishilar qalbida jamiyat farovonligi uchun naf keltirish istagi barq urgan bo'ladi. Men Sharq adabiyotida topgan, ruhoniyligi buyuk shoirlardan biri Alisher Navoiydir" [Fitrat, 2000: 23].

Garri Dikning mana bu xolis xulosasi yanada e'tiborli: "Har qanday qimmatbaho javohir ehtiyotkorlikni va e'tiborni talab etadi. Navoiy o'z xazinasini bilan bu dunyoning

mantiqsizliklari va chalkashliklarini bartaraf etishga yordamlashadi. Biz bunday shoirga muhtojmiz, u esa bizga ko'mak beradi". Bu iqtibos ulug' ajdodimizning atigi bitta asarini shu yaqin davrda o'z tiliga o'giran G'arb ziyolisi jo'shqin qalbining izhoridir [Ibrohim Haqqul, 2007: 10].

Navoiy asarlari tarjimalari bo'yicha qoraqalpoq adabiyotshunosligida ma'lum darajada tadqiqotlar olib borildi. Xususan, N.Davqarayev, Q.Ayimbetov, N.Japaqov, I.Sagitov, Q.Maqqsetov, S.Ahmedov, K.Mambetov kabi olimlarning ushbu mavzu tahliliga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlari mavjud.

O'z navbatida, Alisher Navoiy ijodiyotiga qiziqish, buyuk ajdodimizning asarlarini o'rganish nafaqat Sharqda, balki G'arbda, Yevropa mamlakatlarida o'zining katta tarixiga ega ekani biz, vorislarga cheksiz g'urur bag'ishlashi bilan bir qatorda, ulkan mas'uliyat ham yuklaydi, albatta.

Navoiy ijodi orqali xorijliklar ma'naviyatimizni, ruhiyatimizni tanishadi. Xorijlik hamkasbimiz Denis Deli: *"Navoiydek buyuk shoir faqat o'zbeklarda bor. Uning ijodidan ta'sirlanib yozilgan g'azallar va asarlar nihoyatda ko'pligini ko'rib hayratga tushaman"*, - degan edi. Alisher Navoiy ijodi xorijiy mamlakatlarda ham sevib o'qilib, asarlari bot-bot tarjima qilinmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlarining Massachusets shtatida istiqomat qiluvchi adabiyotshunos, yozuvchi va shoir Denis Deli ko'p yillik izlanishlari tufayli Alisher Navoiyning g'azallarini ingliz tiliga o'girdi hamda "Cervena Barva Press" nashriyotida "Alisher Navoiyning yigirma bir g'azali" ("Twenty one ghazals by Alisher Navoiy") deb nomlangan kitobni chop ettirdi. To'plam xorijliklar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. U yozadi: "Alisher Navoiy – buyuk shoirlardan biri. Italiyaliklar uchun Dante qancha qadrlı bo'lsa, Navoiy ham o'zbeklar uchun shunchalik buyuk shaxs. Qisqa vaqt ichida uning barcha ijodi bilan tanishish mushkul. Buning uchun bir insonning umri yetmaydi. Men uning ingliz, rus, fransuz tillaridagi tarjima asarlarini ko'zdan kechirdim. Angladimki, Alisher Navoiy ijodiga butun dunyoning qiziqishi hamon davom etib kelmoqda. Ulug' shoir ijodining bir qatrasini kashf qilgan kishi borki, hayratini yashira olmaydi. Tezroq Navoiy haqida zamondoshlariga xabar bergisi, uning yozganlarini o'z ona tiliga o'girgisi kelaveradi. Men bunga aminman... Masalan, mamlakatingizda Alisher Navoiy ijodi haqida ilmiy tadqiqot olib borgan kanadalik Harri Dik Navoiyga "Dunyoni ma'naviy tanazzuldan qutqara oladigan ko'ngil bog'ining bog'boni" deya ta'rif beradi va "Lison ut-tayr" asarini ingliz tiliga tarjima qiladi. Bular qatoriga "Farhod va Shirin"ni ukrain tiliga tarjima qilgan shoir Nikolay Bajan, polyak tarjimoni Yanush Kijiovskiyni ham qo'shish mumkin... Navoiy ijodi shunchalik serqirradi, uning tarjimasiga qo'l urish uchun, avvalo, islom dini g'oyasi va qarashlari, turkiylar madaniyati, yashash tarzi, so'zlarning kelib chiqish etimologiyasini ham bilish juda zarur ekan" ["Xalq so'zi" gazetasi, 26 aprel, 2018].

Inglizlarning sharq she'riyatiga qiziqishi kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas. Sharq adabiyotining g'arbga yoyilishi sharqona g'oyalar, motivlar, obrazlarning g'arbga ko'chishi uzoq tarixga ega. XV-XVI asrlarda g'arb adabiyotida sharqqa intilish kuchaydi. Bu davrda Sharq adabiyotining ko'plab durdona asarlari g'arb tillariga tarjima qilindi. Natijada XVIII asrda Yevropa o'zi uchun Sharq adabiyoti degan yangi bir olamni kashf etdi. Bularning barchasi G'arbdagi sharq klassikasiga bo'lgan munosabatlarni o'zgartirib yubordi. 1843-yili Fransiyaning shimoli sharqiy qismiga joylashgan Nausi shahrida sharqshunoslik maktabining asoschilaridan biri Gustav Dugat "Orientalisme rende classigue" (Sharqshunoslik-unitilgan klassika) nomli qo'llanma yaratdi. Unda muallif gumanitar fanlar rivojida ochilgan antik durdonalarni hal qilish uchun

faqatgina grek va lotin tilini yetarli emasligini isbotladi va Sharqni o'rganishga chaqirdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda Alisher Navoiyning 10 va 20 jildli mukammal asarlar to'plamlari nashr etildi. Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlab, ilmiy monografiyalar, adabiy-badiiy kitoblari, shuningdek, haykaltaroshlar, rassomlar, bastakorlar tomonidan rang-barang asarlar yaratildi.

Yurtimizda, jumladan, shoir tug'ilgan qutlug' 9-fevral sanasini har yili adabiyot va ma'rifat bayrami sifatida yuksak darajada nishonlash an'anasi qaror topdi. Ulug' so'z san'atkorining asarlari muntazam nashr etilib, navoiyshunoslik sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Respublika ko'lamida va xalqaro miqyosda turli ilmiy anjumanlar o'tkazilmoqda.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etilishi ham yana bir dalildir. Yurtimiz va bir qator xorijiy davlatlarda ulug' Hazrat xotirasiga yodgorliklar o'rnatildi, ul zotning asarlar to'plami to'liq nashrdan chiqarildi.

Poytaxtimiz markazidagi ulug' bobomizning muazzam me'moriy yodgorligiga mutanosib ravishda Adiblar xiyoboni barpo etildi. Ushbu xayrli amallarning barchasi, haqiqatdan ham, ma'naviy va madaniy hayotimizda ulkan voqealarga aylandi va kelajak avlodlarga ham bu ezgu amallar ko'prik vazifasini bajaradi.

Prezidentimizning Qarori esa bu boradagi ezgu ishlarni tubdan yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarishga qaratildi. Nega deganda, mamlakatimiz «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning butunlay yangi bosqichiga qadam qo'yib, yangi Uyg'onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o'zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o'rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondining ta'sis etilishini ana shu dolzarb talabdan kelib chiqqan holda, hozirjavoblik bilan qo'yilgan muhim amaliy qadam sifatida baholash mumkin. Fond, jumladan, Alisher Navoiy merosini o'rganayotgan xalqaro tashkilotlar, ilmiy markazlar va taniqli olimlar bilan o'zaro aloqa o'rnatishga har tomonlama ko'maklashish, turli mintaqalardagi Navoiy nomi bilan bog'liq nodir me'moriy yodgorliklarni tiklash, ta'mirlash va asrab-avaylashga yordam berish orqali xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni bu bebaho merosdan yanada keng bahramand etish ishlariga xizmat qilishiga aminmiz.

Prezidentimizning yana bir muhim tashabbusi – Alisher Navoiy ordenini ta'sis etishdir. Bu sharaflig'oya Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g'oyalarning jahon tamaddunida tutgan o'rnini hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek ulug' shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ'ib etish maqsadiga qaratilgani bilan ulkan ahamiyatga molik.

Ushbu yuksak mukofot bilan Alisher Navoiyning ijodiy merosini chuqur o'rganish va ommalashtirishga ulkan hissa qo'shgan mamlakatimiz va xorijiy davlatlar fuqarolari hamda ilmiy-ijodiy muassasalari taqdirlanadi.

Bunday yangicha amaliy qadamlar ma'naviyatimiz yuksalishi, ko'hna tariximiz tiklanishi, Alisher Navoiy hamda o'z hayoti va ijodi bilan Sharq xalqlari madaniyatini

yaqinlashtirgan boshqa o'nlab allomalar, shoir va mutafakkirlarning boy ilmiy-adabiy merosini o'rganish, ular qoldirgan noyob kitob va qulyozma asarlarni dunyoning turli tillariga tarjima qilish, nashr etish, ommalashtirish bilan bog'liq tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, bu boy moddiy-ma'naviy merosni xalqlar do'stligini mustahkamlashga xizmat qildirish maqsadlarini ro'yobga chiqarishda muhim o'rin tutadi.

Xorijiy mamlakatlar kutubxonalari, muzeylari va fondlaridan Alisher Navoiy ma'naviy merosini izlab topish yuzasidan ilmiy-qidiruv ishlarini olib borish, xorijiy mamlakatlarda Alisher Navoiy haqida chop etilgan kitoblarni o'zbek tiliga tarjima qilib nashr etish, o'zbekistonlik mualliflarning shu mavzudagi asarlarini mamlakat va dunyo miqyosida ommalashtirish ishlarini rag'batlantiradi.

Alisher Navoiy xalqimiz ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan biri ekani, ul zotning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliigi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqidagi asl haqiqatlarni keng ommaga yetkazishga, aholini, ayniqsa, yosh avlodni O'zbekistonning shonli tarixi, saodatli buguni va yorug' kelajagi uchun g'urur-iftixor, shukronalik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatlarini tubdan kengaytiradi.

Alisher Navoiy haqida badiiy, hujjatli filmlar va telefilmlar yaratish, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va madaniyatiga oid qo'lyozmalarni chop etish, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar uyushtirish, adabiyot va san'at festivallari, shuningdek milliy konsert dasturlarini o'tkazish uchun yangi hamda qulay maydonni yuzaga keltiradi.

Bir tomondan, turli mamlakatlar o'rtasida ziyolilar, mutaxassislar, talaba va o'quvchilardan tuzilgan maxsus turistik guruhlar almashuvini joriy qilish, ikkinchi tomondan, iqtidorli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish uchun Alisher Navoiy, uning asarlari qahramonlari nomlari bilan stipendiya va mukofotlar ta'sis etish uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, mutafakkir Navoiyning hayotda qilgan ishlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, xalqning turmushini yaxshilashga, og'ir qismatini yengillashtirishga qaratilgan savobli va xayrli ishlari, "Xamsa"sining mazmun-mohiyati umuminsoniy va gumanistik ruh bilan sug'orilgan. Mutafakkir insonparvarlik tushunchasiga ijtimoiy mazmun beradi. Ushbu dostonida kamtarlik, vafodorlik, nafsni tiyish, rostgo'ylik, saxiylik, donolik, muhtoj va yetim-yesirlarga yordam berish, bag'rikenglik, muloyimlik, shirinsuxanlik, shijoatkorlik, ezgulik, mehr-muruvvat, rahmdillik, odamiylik - bularning hammasi insonparvarlikning tarkibiy qismi bo'lib, insonni kamolot sari, ezgulikka yetaklaydi.

Adabiyotlar:

1. Fitrat. Navoiyning forsiy she'riyati va forsiy tilidagi asarlari haqida. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent, 2000. – B. 23.
2. Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodini o'rganishning uslubiy asoslari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2001. № 2. – B. 2-10.
3. Ibrohim Haqqul. Navoiy sahifasiga qaytish. – Toshkent, 2007. – B. 10
4. M.Shayxzoda. G'azal mulkinging sultoni. Ishlar. Oltita tom. – Toshkent, 1972.
5. "Xalq so'zi" gazetasi. 2018-y. 26-aprel.

“MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAYN” ASARIDAGI TURKIY FE‘LLAR VA OMONIM SO‘ZLAR TAHLILI

Musayeva Ozodaxon Mubarakovna,
*katta o‘qituvchi, Jumabek Tashenev nomli universitet,
musaevaazada7@gmail.com*

Sultonova Gulchehra,
*Jumabek Tashenev nomli universitetning talabasi
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/LWNE5027*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiy dahosining tilshunoslikka doir “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari, uning xalqaro va o‘zbek nashrlari haqidagi fikr-mulohazalar ilmiy asoslar bilan keltirib o‘tiladi. Shuningdek, turkiylarning fors tilida mavjud bo‘lmagan yuzta fe‘li, ulardan ayrimlarining izohi, graduonomiyasi, faqatgina turkiy she‘riyatda mavjud bo‘lgan tuyuq janri hamda uni shakllantiradigan jinsdosh so‘zlar, ikki, uch, to‘rt, besh, olti o‘rinda omonimlik hosil qila oladigan turkiy so‘zlarning izohlari tahlili xususida nazariy qarashlar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: “Muhokamat ul-lug‘atayn”, qiyosiy-tarixiy metod, chog‘ishtirish metodi, graduonomiya, tuyuq, omonimiya.

ANALYSIS OF TURKISH VERBS AND HOMONYMS IN THE WORK "MUHOKAMAT UL-LUGATAYN"

Abstract. This article presents a scientific analysis of the linguistic work of the renowned scholar, Alisher Navoi, particularly focusing on his seminal work *Muhokamat ul-Lug‘atayn*. The study examines its development through both international and Uzbek scholarly publications. The article further explores theoretical perspectives on the analysis of one hundred verbs unique to the Turkic languages, which do not have equivalents in Persian. It provides detailed explanations, including the gradation of some of these verbs, as well as the *tuyuk* genre, a distinctive feature of Turkic poetry, and the cognate words that contribute to it. Additionally, the study delves into the Turkic words that may give rise to homonymy across multiple positions, specifically the second, third, fourth, fifth, and sixth, offering comprehensive interpretations of these linguistic phenomena.

Keywords: “Muhokamat ul-lug‘atayn”, comparative-historical method, comparison method, graduonomy, *tuyuk*, homonymy.

Turli tillar oilasiga mansub tillarni chog‘ishtirib tahlil qilgan dastlabki asarlardan biri sifatida Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari ko‘plab tilshunos va adabiyotshunoslarni bir maydonga birlashtirdi. Mazkur asarning yaratilishi, davrlar osha o‘z qiymatini yo‘qotmayotganligi xususidagi ilmiy bahslar “Muhomatat ul-lug‘atayn” asari haqida kengroq mushohada yuritishni talab etadi.

Ushbu asar 1941-yilda Raf‘at Eshitmon tomonidan lotin alifbosi asosida nashr yuzini ko‘rgan. 1950-yilda Turxon Ganjaviy tomonidan fors tiliga o‘girilib, Tehronda chop etiladi. Shu tarjima 1984-yilda ayrim o‘zgartirishlar bilan Pokistonda ham nashr etiladi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari 1925-yilda Abdulhakim Gulmuhammadov tomonidan Ashxobodda ham chop etilgan. 1988-yilda esa Hamid Temur uni uyg‘ur tilida Urumchida nashr etishga muvaffaq bo‘ladi.

O‘zbekistonda esa mazkur asar birinchi marotaba 1916-yilda Qo‘qonda nashr etilgan bo‘lsa, 1940-yilda P.Shamsiyev va O.Usmonovlar tomonidan Toshkentda chop etilgan. P.Shamsiyev yana ikki marotaba: 1948, 1967 yillarda “Muhokamat ul-

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alishir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhriddin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majozilik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o’qitish bo’yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San’at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO’XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g’azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go’zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o’zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo’llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug’aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622